

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI TOLERANTLIK RUHIDA TARBIYALASH
ILMIY NAZARIY ASOSLARI**

Mardiyeva Gulmira O'tkir qizi

JDPU magistiri

Sharof Rashidov tumani 12-maktab o'qituvchisi

Annotatsiya: *Tolerantlikni har tomonlama qo'llabquvvatlash maqsadida YUNESKO "Bag'rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi"ni qabul qilgan (1995-yil 16 noyabr). Jamiyatda turli xalqlar, millatlar va dinlarning o'ziga xos xususiyatlariga nisbatan tolerantlik munosabatini O'zbekiston misolida ko'rish mumkin. Mamlakatimizda turli toifadagi odamlar, siyosiy kuchlar va partiyalar o'rtasidagi hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikengliktamoyili ijtimoiy taraqqiyotning eng muhim omillaridan biridir. O'zbekistonda 130 dan ziyod millat va elat vakillari istiqomat qiladi. Ular o'rtasida asrlar davomida milliy nizolar bo'lmagan va bu xalqimizning azaliy bag'rikengligini ko'rsatadi. 10 dan ziyod konfessiyaga mansub din vakillari yurtimizda hamkor, hamjihat yashab kelayotgani esa dinlararo Tolerantlikning yaqqol namunasidir.*

Kalit so'zlar: *Muloqat, pedogogik muloqat, tolerantlik, muloqat turlari, muloqat madaniyati, romantik tuyg'ular, jamiyat, pedagogik mahorat, pedagogik tolerantlik, ijobiy-ruhiy iqlim.*

“Tolerantlik (lot. tolerantia — sabrtoqat), bag'rikenglik — o'zgalarning turmush tarzi, xulq-atvori, odatlari, his-tuyg'ulari, fikr-mulohazalari, g'oyalari va e'tiqodlariga nisbatan toqatli bo'lish. Hozirgi dunyoda Tolerantlik o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiyotning globallashuvi va yanada mobillashuvi, kommunikatsiyalarning tez rivojlanishi, integratsiya va o'zaro bog'liklik, keng miqyosli migratsiya va aholining ko'chib yurishi va boshqa jamiyatda Tolerantlik tamoyilining ahamiyatini kuchaytiradi. Bag'rikenglik tamoyili aqidabozlikdan, haqiqatni mutlaklashtirihdan voz kechishni anglatadi va inson huquqlari sohasidagi xalqarohuquqiy hujjatlarda belgilangan qoidalarni tasdiqlaydi”⁶⁶. Bu tamoyilga ko'ra, har kim o'z e'tiqodiga amal qilishda erkindir va har kim bu huquqqa boshqalar ham ega ekanligini tan olmog'i lozim. Bir kishining qarashlari boshqalarga majburan singdirilishi mumkin emas. Tolerantlikni alohida shaxslar, guruhlar va davlatlar namoyon qilishi lozim.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tolerantlikning shakllangani bevosita muloqat jarayonining sifatiga bog'liq bo'ladi. Pedagogik muloqat o'quvchi yoshlarda ularning shaxs sifatidagi barcha yashirin qirralarini ham ochib bera oladi, qachonki muloqatda ikki tomonning faolligi yuqori bo'lsa. Xo'sh, muloqat o'zi nima? “Muloqat — o'qituvchining pedogogik faoliyatida eng muhim kasbiy quroli hisoblanadi. Pedagogik muloqat bu o'qituvchining talabalar bilan darsda va darsdan tashqari faoliyatida o'zi uchun eng qulay bo'lgan pishxologik muhitni vujudga keltirib, ijobiy-ruhiy iqlimni

⁶⁶Milliy istiklol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar, T., 2001.

yaratish imkoniyatini beradi.«Muloqat» yunoncha soʻz boʻlib, «suhbatlashuv», «shaxslararo suhbat» va «Oʻzoro fikr almashuv» maʼnosini bildiradi, hamda ikki kishi yoki undan ortiq kishilarning soʻzlashuvida paydo boʻladi⁶⁷. Pedagogik muloqat oʻqituvchi va oʻquvchi yoshlar jamoasining oʻzaro taʼsir malakasi, usuli va tizimini anglatib uning mohiyati oʻzaro axborat almashuviga taʼlim va tarbiyaviy taʼsir oʻtkazishda, oʻzaro bir-birlarini tushunishga erishishlarida namoyon boʻladi.

Insonning madaniyatlar rang-barangligi vaziyatidagi yashash sharoitlari va madaniyati masalalari, mazkur jarayonda pedagogik taʼlim va tarbiya talablari, yaʼni multimadaniyat xususiyatlarini shakllantirish omillari A.G.Asmolov, Z.G.Apresyan, G.D.Dmitriyev, G.V.Palatkina, V.A.Tishkov, zoʻravonlikka qarshi pedagogika va psixologiya asoslari, T.A.Balotina, V.A.Sitarovlar, yoshlar tafakkurida tolerantlik tamoyillarining shakllanishi omillari P.F.Kolmogorov, I.V.Krutova, L.V.Stroganova, L.V.Zaretskaya, B.3.Vulfov kabi pedagog va psixolog olimlar tomonidan tadqiq etiladi.

A.G.Asmolov “tolerantlik” tushunchasining mazmuniga uch muhimxususiyatni kiritadi, ular: inson sabr-toqati va bardoshligi bilan bogʻliqxususiyatlar; ikkinchisi, boshqalarga nisbatan ham jismoniy jihatdan, hammaʼnaviy-ruhiy jihatdan qanoatli boʻlish xususiyati; uchinchidan, insonlararo munosabatdarda baʼzi amallarning qatʼiy man etilishi. Bizning fikrimizga koʻra, mana shu xususiyatlar mezonlarini anchayn kengaytirish lozim.

Darhaqiqat, “tolerantlik” tushunchasi bir tomondan, mumkin boʻlgan qadriyatlar tizimini, ikkinchi tomondan, man qilinishi lozim boʻlgan amallar tizimini oʻz ichiga qamrab oladi. Ammo tolerantlik faqat sabr-bardoshlilik, qanoatlilik tushunchalarigina emas. Shu bois, oʻzbeklarning milliy tafakkurida tolerantlik tushunchasi doirasiga eʼzoz, izzat, sabr, qanoat, mehr, keng feʼllilik, bilimdonlik, boshqa madaniyat va din vakillarini tan olish, taqvodorlik, bagʻrikenglik, doʻstlik, birodarlik, insonlararo azizlik, oʻzaro tenglik, hamjihatlik, tinchlik kabi tushunchalar kitirilgan.

Tolerantlikning asosiy maqsadi oʻquvchi yoshlar- bakalavrlarga bagʻrikenglik, oʻzga din, millat vakillariga hurmat, ularning qadriyatlarini eʼzozlash, milliy boyliklariga hurmat bilan qarash, toqatlilik, bardoshlilik, doʻstlik, birodarlik, vatanparvarlik, saxiylik, sadoqatlilik, oʻzgalarga hurmat nazari bilan qarash koʻnikmalarini shakllantirishdan iborat. Oʻzbekiston Milliy ensiklopediyasida tolerantlikka quyidagicha taʼrif berilgan: «Bagʻrikenglik, oʻzgalarning turmush tarzi, xulq-atvori, odatlari, xis-tuygʻulari, fikr-mulohazalari, gʻoyalari va eʼtiqodlariga nisbatan toqatli boʻlish» Taʼlim- tarbiya jarayonida yoshlarda tolerantlikni tarbiyalashda esa, tarbiya vositalari tarbiyachining oʻrni beqiyos hisoblanadi, shuningdek, tolerantlik tushunchasi oʻz tarkibiga chidam, bardosh, oʻzgalarning hayot tarzi, fikrlashi, xatti-harakati, qadriyatlariga toqat qilish, ularga hurmat nazari bilan qarash, atrofdagilarni kamsitmaslik kabi tushunchalarni qamrab olgan. Hozirgi kunda

⁶⁷Исаева, М. П. Педагогик мuloqat jarayonida tolerantlikni tarbiyalash / М. П. Исаева. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2021. — № 8 (350). — С. 224-226. — URL: <https://moluch.ru/archive/350/78686/> (дата обращения: 01.03.2022).

tolerantlik o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Bunga ko'ra har kim o'z e'tiqodiga amal qilishda erkindir. Har kim bu huquqga boshqalar ham ega ekanligini tan olmog'i lozim. O'zbekiston ko'p millatli davlat. Bu erda asosiy millat o'zbeklar bilan birga o'z madaniyatiga va an'alariga ega bo'lgan yuzdan ortiq millat va elatlar yashaydi. Ana shunday sharoitda, ko'pmillatli jipslashgan davlatni barpo etishda, millatlararo va elatlararo bag'rikenglikka erishish siyosatining ahamiyati benihoya kattadir. Tolerantlikni har tomonlama qo'llab- quvvatlash maqsadida YUNESKO «Bag'rikenglik tamoillari deklaratsiyasi» ni 1995-yil 16-noyabrda qabul qilingan. Jamiyatda turli xalqlar, millatlar va dinlarning o'ziga xos xususiyatlariga nisbatan tolerantlik munosabatini O'zbekiston misolida ko'rish mumkin. Pedagogik jarayonlarda tolerantlik tushunchalarini talaba yoshlarda shakllantirish bugunning pedagogikasining oldida turgan eng birlamchi masalalaridan biri. Murojaatnomadagi fikrlarda ham bag'rikenglik muhitini mustahkamlashga qaratilgan ishlarning sifatiga urg'u berilgan kelajak avlod tarbiyasida bag'rikenglikni kamol topdirish zarurligini ko'rsatadi. Prezidentimiz 30-iyulni O'zbekistonda «Xalqlar do'stligi kuni» deb belgilashni taklif etdilar. Bu millatlar o'rtasidagi do'stlik, hamjihatlikni yanada mustahkamlashning sifat ko'rsatkichi bu yilning ilk namunasi, birinchi qo'yilgan qadamidir. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, talaba yoshlarda tolerantlik tushunchalarini shakllantirish jarayoni nafaqat, pedagogikaning kasbiy mahorati, balki biz ulg'aytirayotgan muhitga ham bevosita bog'liqdir. Tog'rirog'i, mazkur jarayonning muvoffaqiyatli amalga oshirish ta'lim –tarbiya jarayoni va ijtimoiy hayotda tolerantlik muhitining mavjudligi bilan uzviy aloqador. Pedagogning mahorati bevosita kasbiy-pedagogik faoliyatda ko'rinadi. SHu sababli u pedagogik jarayonning umumiy mohiyatini chuqur anglay olishi, bu jarayonda ustivor ahamiyat kasb etadigan qonuniyatlardan xabardor bo'lishi, pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish mexanizimlarini puxta egallay bilish lozim. Ta'lim jarayonini faol ishtirokchisi bo'lgan pedagogning pedagogik mahorati uning shaxsi, ish tajribasi, fuqoralik maqomi, mutaxasis sifatidagi mavqeyi u tomonidan pedagogik texnikaning etarli darajada egallanganligi, kasbiy faoliyatning individualigidan dalolat beradi. Tolerantlikka ehtiyoj bugun paydo bo'lib qolgani yo'q. Qadim zamonlardan buyon, ne-ne yurtlarni bosib olgan shohlarning ham siyosatida bag'rikenglik yetakchilik qiladi. Masalan, sharq mutafakkirlaridan Abu Nasr Forobiy ijodida bag'rikenglik g'oyalari yuksak rol o'ynaganligini yaqqol ko'rishimiz mumkin. Uning «Baxt-saodatga erishuv yo'llari haqida risola» («Risola fit tarbix ala asbob as-saodat»), «Shaharni boshqarish» («As siyosat an-madaniya»), «Urush va tinch turmush haqida kitob» («Kitob fi maoyish va-l xurub»), «Fazilatli xulqlar» («As-siyrat al-fazila»), «Fozil shahar odamlari qarashlari» singari asarlari o'zining boy insonparvarlik va bag'rikenglik tamoyillari singdirilganligi bilan muxim ahamiyatga egadir.

Maktab ta'lim jarayonida tolerantlik madaniyatini shakllantirish Har bir jamiyatning negizini uning fuqarolari, bag'rikeng oilasi tashkil etadi. Har bir fuqaroning jamiyatda tutgan o'rni bilan davlatning qudrati belgilanadi. O'sib

kelayotgan avlodning yetakchiligi ham, inqirozi ham oiladan boshlanadi. Oilada olingan tarbiya va bilim o'rnini hech bir narsa bosa olmaydi. Oilada shaxs bag'rikenglik madaniyatini shakllantirish bolaning yoshligidan boshlanadi. Shaxs bag'rikenglik madaniyatni shakllantirishda oiladagi munosabatlardagi muozanatga befarq bo'lmaslik lozim.

Maktabda yoshlarga bag'rikenglik ruhida tarbiya berish ta'lim tizimining boshlang'ich nuqtasi hisoblanadi. Oiladagi muhit farzandlar va ota-onalar o'rtasidagi o'zaro munosabat shakllangan tarbiya tizimi bolalarda bag'rikenglikka bo'lgan dastlabki qarashlarni shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Yoshlarni avvalo oila tarbivalaydi. Oilaviy muhit o'zaro hurmat, bag'rikenglik, olijanoblik, halollik asosiga qurilgan bo'lsa, oila boshliqlari o'z vazifalariga sidqidildan qarasarlar jamiyatning bunday yacheykasidan yaxshi fuqarolar yetishib chiqadi.

Mustaqillik yillarida tolerantlik, shuningdek diniy bag'rikenglik tamoyillari milliy mafkura va milliy o'zlikni anglash talablari bilan bog'liq ravishda qayta shakllantirildi. Tolerantlik maqsadlari, uni jamiyat hayoti, xususan yoshlar tafakkuriga singdirishning amaliy jihatlari demokratik fuqarolik jamiyati, dunyoviy davlat qurish va barpo etish jarayoni va maqsadi bilan uzviy bog'lanadi.

Maktab yoshdagi bolalar tolerantlik tafakkuri asosida tarbiyalash masalasi pedagogik tadqiqotlarning muhim kategoriyasi sifatida shaxs kamoloti va shaxsning jamiyatdagi rolini ta'minlab beruvchi kompleks omillar majmuini vujudga keltirishni talab etadi. Maktab yoshdagi bolalarda tolerantlik tafakkurini shakllantirishda ana shunday kompleks munosabat ulardan quyidagi axloqiy va ma'naviy xislatlarning tarbiyalanganligini talab qiladi:

Maktab yoshdagi bolalarda tolerantlik tafakkurini shakllantirishning pedagogik jihatdan dunyoviy demokratik va fuqarolik jamiyati borasidagi yangi tamoyillar bilan bog'lanishi asosida uni ta'lim tizimiga joriy etishning quyidagi xususiyatlariga amal qilish lozimligi aniqlandi:

- maktab yoshdagi bolalarning ijtimoiy yo'naltirilgan faolligi, milliy va umumbashariy qadriyatlarni o'rganishga bo'lgan ehtiyojini hisobga olishasosida tolerantlik tafakkuriga tayanish;
- maktab yoshdagi bolalarni shaxs sifatida kamol topdirish faoliyatiga davlat va jamiyat rivojining kelgusi takomili asosi sifatida qarash;
- maktab yoshdagi bolalar jamiyat rivojining istiqbol zahira boyligi sifatida anglash asosida ularga tolerantlik tamoyillarini singdirish;

Maktab yoshdagi bolalarda tolerantlik tafakkurini shakllantirish va uning ijobiy yechimini topish yosh avlodni dunyoviy ilmlar asosida tarbiyalash asosida qurilmog'i lozim. Tolerantlik tushunchasini maktab yoshdagi bolalar tafakkurida shakllantirish jarayonida ularning bilim saviyasi va tafakkuridagi tolerantlik bo'yicha bilim darajasini belgilab olib, so'ng barcha guruhlar saviyasini nazariy va amaliy bilimlar bilan boyitib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur pedagogik jarayon maktab yoshdagi bolalarning yosh xususiyatlari, ularning o'z fikriga ega bo'lishga intilishi, muloqot olib borish, bahs qilish, o'z fikrini birovlariga o'tkazish madaniyatlari darajalarini ham inobatga olish zarur. Chunki tolerantlik insonning umumiy bilim va madaniyat darajasini belgilovchi asosiy ko'rsatkichlar doirasiga kiruvchi qadriyatlardan hisoblanadi. Tolerantlik tushunchasi va tafakkuri maktab yoshdagi bolalar ongida jamiyatda o'zini tutish va o'z fikrini boshqalarga o'tkazish borasida quyidagi ko'nikmalarni shakllantirish zarurligini ko'rsatdi.

Shu bois, ta'lim-tarbiya jarayoni maktab yoshdagi bolalarda demokratikjamiyatda yashash ko'nikmalari, shakllangan bo'lishi lozimligini talab etadi. Shu bois, tolerantlik yangi asrdagi insonlararo munosabatlarning asosi, insoniyatni turli ziddiyatlardan asrash usuli hisoblanadi. Shunday ekan, tolerantlik tamoyillarini tarbiya tizimining ilk bosqichlaridanoq ta'lim jarayoniga kiritish, uning maktab ta'lim, umumiy ta'lim, o'rta – maxsus, maktab ta'lim bosqichlari bo'yicha differensial taqsimlangan tizimini yaratish davr talabidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Milliy istiklol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar, T., 2001.
2. Исаева, М. Р. Педагогик мuloqat jarayonida tolerantlikni tarbiyalash / М. Р. Исаева. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2021. — № 8 (350). — С. 224-226. — URL: <https://moluch.ru/archive/350/78686/> (дата обращения: 01.03.2022).